



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

## Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi  
№354-sonli qarori bilan  
**Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy attestatsiya  
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,  
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.  
Electron manzil: info@adpi.uz  
Telegram: ADPI\_Ilmiy\_xabarnomasi  
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

**BOSH MUHARRIR:**  
**B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**Mas'ul muharrir:**  
**B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**

### TAHRIR KENGASHI

**S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi**  
**I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor**  
**Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor**  
**A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor**  
**B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor**  
**Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor**  
**Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor**  
**T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor**  
**U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor**  
**M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor**  
**L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor**  
**Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Muharrirlar:**  
**O.Karimov,**  
**U.Malikova,**  
**B. Mashrabova.**

## MUNDARIJA

### PEDAGOGIKA

<b>Hasanov Sh.A.</b> Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini .....	4
<b>Qoraboyev J.B.</b> "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi .....	8
<b>Umurzaqova N.S.</b> Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	13
<b>Камалходжаева С.С.</b> Язык как объект лингвистического исследования .....	16
<b>Абдуллаева А.Э.</b> Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков .....	19
<b>Karimov O.T., Mirzayev O.X.</b> Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiyyera" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari .....	23
<b>Jo'rayeva M.A.</b> Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish .....	29
<b>Ikromov M.X., Abduraimova M.A.</b> Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni .....	33
<b>Ikromov M.X., G'ulomova M.N.</b> Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish .....	37
<b>Mamatisaqova G.A.</b> Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi .....	41
<b>Mamadaliyev B.K.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish .....	45
<b>Axmedova D.X.</b> Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari .....	48
<b>Kosimova G.M.</b> Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash .....	53
<b>Xoldarova M.Q., Tairova M.B.</b> Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi .....	57
<b>Abdurahmonova H.V.</b> Saniye Benjik Kanganing o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari .....	61
<b>Xurshidbekov A.M.</b> Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari .....	67
<b>Olimjonov O.O.</b> Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari .....	71
<b>Usarov M.M.</b> Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi .....	75
<b>Karimova F.Z.</b> Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari .....	80
<b>Xakimov Sh.T.</b> Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari .....	83
<b>O'rinboyev L.X.</b> Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni .....	89
<b>Sobirjonov I.T.</b> Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari .....	95
<b>No'monova G.D.</b> Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish .....	100
<b>Xodjayev M.K.</b> Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari .....	105
<b>Kodirov M.A., Otashev D.R.</b> Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari .....	110
<b>Samatov D.T., Abdullaev G'A.</b> Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli .....	114
<b>Samatov D.T., Abdullaev G'A.</b> Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi .....	118
<b>Mullajonov Sh.I.</b> Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli .....	124
<b>Otashev D.R., Otasheva O.H.</b> O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni .....	129

вовлеченность, персонализацию и доступность в изучении языков. Однако для максимального раскрытия их потенциала необходимо решить такие проблемы, как стоимость, технологическая зависимость и конфиденциальность данных. По мере дальнейшего развития образовательных технологий интеграция инновационных инструментов будет способствовать дальнейшему совершенствованию усвоения языка, делая обучение более эффективным, интерактивным и доступным для глобальной аудитории.

Будущие исследования должны изучить, как новые технологии ИИ, достижения в области виртуальной реальности и сертификация на основе блокчейна могут сформировать следующее поколение образования в области иностранных языков. Внедряя технологические инновации и сохраняя эффективное взаимодействие между людьми, преподаватели могут создать сбалансированную и иммерсивную среду изучения языка для студентов по всему миру.

### Список литературы:

1. Musaeva G. The Importance of Medical Terms in English Lessons Open Academia: Journal of Scholarly Research 1 (9), 104-110.
2. Abdullaeva A.E., Khudoyqulova D.K. “Psycholinguistic features of teaching listening to students of higher educational institution” Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science Volume 2 (2), 2021 pp.10-13
3. N.D Kenjaeva, A.E Abdullaeva, T.B Akhmedova “New pedagogical technologies in teaching foreign language to students of nonphilological institutions” “ACADEMICIA” An International Multidisciplinary Research Journal Volume 11, 2021, pp. 68-75
4. Akhmedova N.A. - Modern Methods of Studying Terms in the Field of Pharmaceutics in English. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. 86-89 pages. 2022/3/29
5. Abdullaeva A.E. “Tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talablariga chet tili o'qitishda loyiha usulining tadbiiq etilishi va undan foydalanishning samarasi” Journal of research and innovations (Тадқиқод ва инновациялар журналі) Volume 2 (2), 2024 <https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/1042/1807>
6. Karimova N.S., Akhmedova N.A., Mirazimova S.B. “Development of a system of staged formation of moral culture of students in foreign language lessons in non-linguistic groups” Science and world. 69-71.

UO'K: 371.212.3

### TALABALARNI IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN “LUMIYERA” METODI ASOSIDA ISHLASHGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

<https://zenodo.org/records/18754570>

**Karimov Odiljon Toxirovich,**  
**Mirzayev Otabek Xusanovich**  
*Andijon davlat pedagogika instituti,*

**Annotatsiya.** Maqolada pedagogika yo'nalishidagi oliy o'quv yurti talabalarini iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlash, mazkur maqsadda talabalarini iqtidorli o'quvchilar bilan “lumiya” metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, talabalarining o'quvchilarni iqtidorini aniqlash, baholash va rivojlantirish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy jihatdan ham samarali bo'lishi zarurligi, Lumiya metodi talabaning iqtidorli o'quvchini aniqlash, uning individual xususiyatlarini anglash, rivojlanish ehtiyojlarini tahlil qilish hamda mos pedagogik strategiyalarni tanlash qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutganligi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtidorli o'quvchi, klasterli yondashuv, “lumiya” metodi, individual xususiyat, iqtidorni aniqlash, rivojlanish ehtiyojlari, qobiliyatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish.

**Аннотация.** В статье рассматриваются дидактические возможности подготовки студентов высших учебных заведений в педагогическом направлении к работе с одаренными детьми, и с этой целью – подготовка студентов к работе с одаренными детьми на основе метода «люмиера». Также утверждается, что методы, направленные на развитие у студентов профессиональных компетенций в выявлении, оценке и развитии талантов учащихся, должны быть не только теоретически обоснованными, но и практически эффективными, и что метод «люмиера» предполагает постепенное развитие у студента способности выявлять одаренных детей, понимать их индивидуальные особенности, анализировать их потребности в развитии и подбирать соответствующие педагогические стратегии.

**Ключевые слова:** одарённый ученик, кластерный подход, метод «Люмиера», индивидуальные характеристики, выявление талантов, потребности в развитии, постепенное развитие способностей.

**Abstract.** The article discusses the didactic possibilities of preparing students of higher educational institutions in the pedagogical direction to work with gifted children, and for this purpose - preparing students to work with gifted children based on the "lumiere" method. It is also argued that methods aimed at developing students' professional competencies in identifying, assessing and developing students' talents should not only be theoretically sound, but also practically effective, and that the "Lumière" method involves the gradual development of a student's ability to identify gifted children, understand their individual characteristics, analyze their development needs and select appropriate pedagogical strategies.

**Key words:** gifted student, cluster approach, Lumiere method, individual characteristics, talent identification, development needs, gradual development of abilities.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda shaxsning individual imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ta'lim jarayonida talaba va o'quvchilarning ichki intellektual, ijodiy hamda psixologik salohiyatini tizimli ravishda ochib berishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik sezgirlik, differensial yondashuv, innovatsion fikrlash hamda tarbiyaviy jarayonni individuallashtirish ko'nikmalari talab etiladi [1]. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga tayyor pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonida reflektiv tahlil, individual yondashuv va pedagogik diagnostika imkoniyatlarini birlashtirgan metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda tarbiyaviy faoliyatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, ularni iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga psixologik va metodik jihatdan tayyorlash, shuningdek, klasterli yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi pedagogik ta'limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [2]. klaster muhitiga ta'lim muassasasi, metodik xizmat, oila, hamkor tashkilotlar hamda raqamli ta'lim resurslari kirib, ularning har biri talabaning kasbiy shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi [3]. Shu nuqtayi nazardan, talabalarining iqtidorni aniqlash, baholash va rivojlantirish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy jihatdan ham samarali bo'lishi zarur. Bunday metodlar pedagogik faoliyatda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini ro'yobga chiqarish, ta'lim subyekting individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalash va kasbiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

“Lumiyera” atamasi ikki semantik komponentdan tarkib topgan bo'lib, u metodning g'oyaviy mohiyatini ifodalaydi. “Lumi” so'zi lotin tilidagi *lumen* tushunchasidan kelib chiqqan bo'lib, “yorug'lik”, “nurlanish” ma'nolarini anglatadi. “Era” komponenti esa davr, bosqich yoki yangilanish ma'nosini bildiradi va ta'lim jarayonida yangi yondashuv, yangi pedagogik tafakkur va metodik paradigmaning shakllanishini anglatadi.

Mazkur ikki tushunchaning birikishi natijasida “Lumiyera” metodi talabaning ichki

intellektual va ijodiy salohiyatini aniqlash, uni faollashtirish hamda zamonaviy pedagogik jarayonga mos ravishda rivojlantirishga qaratilgan metod sifatida talqin etiladi. Metod nomlanishi mazmunan ilmiy asoslangan bo'lib, uning estetik jihatdan ixcham va tushunarli shaklda ifodalanishi metodning didaktik qiymatini oshiradi hamda uni pedagogik amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Lumiya metodi talabalarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga doir kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga refleksiv-analitik va ijodiy yo'naltirilgan pedagogik metod hisoblanadi. Mazkur metod talabaning iqtidorli o'quvchini aniqlash, uning individual xususiyatlarini anglash, rivojlanish ehtiyojlarini tahlil qilish hamda mos pedagogik strategiyalarni tanlash qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Metodning konseptual asosi iqtidorni muayyan pedagogik shart-sharoitlar ta'sirida namoyon bo'ladigan va rivojlanadigan dinamik jarayon sifatida talqin etishga asoslanadi. Iqtidor ko'pincha tashqi jihatdan aniq ko'rinmasligi, yashirin shaklda namoyon bo'lishi yoki noto'g'ri pedagogik yondashuv natijasida yetarli darajada rivojlanmasligi mumkin. Shu sababli pedagogdan yuqori darajadagi kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash, psixologik sezgirlik hamda refleksiv yondashuv talab etiladi.

Lumiya metodida iqtidor "yorug'lik" metaforasi orqali izohlanib, u ta'lim jarayonida maxsus tashkil etilgan pedagogik muhit, maqsadli ta'limiy ta'sir va individual yondashuv orqali ochilishi mumkin bo'lgan salohiyat sifatida qaraladi. Metod talabaning pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, asoslangan qaror qabul qilish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Lumiya metodining muhim jihatlaridan biri o'quvchining rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va unga mos ta'limiy ta'sir choralarini belgilashdan iborat. Bunda o'quvchining kuchli tomonlari bilan bir qatorda, rivojlanishi lozim bo'lgan jihatlari ham aniqlanadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchining imkoniyatlariga mos, bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan topshiriqlar va faoliyat turlarini tanlashdan iborat bo'ladi. Shu asosda individual rivojlanishga xizmat qiluvchi ta'limiy muhit va metodik yechimlar ishlab chiqiladi. Talabalar turli pedagogik holatlarni ko'rib chiqish, ulardagi muammo sabablarini aniqlash, ehtimoliy yechimlarni ishlab chiqish va asoslab berish jarayoniga jalb etiladi. Ushbu bosqichda talaba muammoga bir yoqlama yondashmay, bir nechta variantlarni taqqoslash, ijobiy va salbiy oqibatlarini baholash hamda o'quvchi shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda eng maqbul yo'lni tanlashga o'rganadi. Metodni qo'llash yakunida bo'lajak pedagoglarda quyidagi natijalar shakllanishi ko'zda tutiladi:

- o'quvchi shaxsini ko'p omilli tahlil qilish ko'nikmasi;
- iqtidor belgilari bo'yicha dalillarga tayangan xulosalar chiqarish qobiliyati;
- ta'lim jarayonida individuallashtirilgan yechimlar ishlab chiqish;
- pedagogik vaziyatlarda muqobil qarorlarni ishlab chiqish va asoslash;
- o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish orqali kasbiy o'sishga intilish.

Lumiya metodini qo'llash jarayonida ta'lim subyekti sifatida talabaning shaxsiy imkoniyatlari va kasbiy shakllanish jarayoni markaziy o'rinda turadi. Metodik yondashuv har bir talabaning bilimni o'zlashtirish tezligi, fikrlash uslubi hamda pedagogik faoliyatga munosabatidagi farqlilikni inobatga olishga asoslanadi. Bu holat ta'lim jarayonini yagona qolipga solmasdan, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi. Metod pedagogik faoliyatda tashqi belgilar bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchi va talabaning xatti-harakatlari, fikrlash jarayoni hamda muammoga munosabatini

chuqur tahlil qilishga undaydi. Ta'lim jarayonida sodir bo'layotgan holatlarni e'tibor bilan kuzatish, mayda, biroq muhim belgilarni farqlay olish qobiliyati bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligida muhim omil sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv tasodifiy xulosalardan voz kechib, dalillarga asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi.

Mazkur metod doirasida talabanning o'z faoliyatiga baho bera olish qobiliyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida qo'llanilgan usullar, tanlangan yechimlar va ularning natijalari ustida qayta fikr yuritish pedagogik tajribani boyitishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon talabanning o'z kamchiliklarini anglash, kelgusida samaraliroq faoliyat olib borish yo'llarini belgilashga yordam beradi. Shuningdek, pedagogik vaziyatlarga noodatiy yondashuvni, muammolarga an'anaviy bo'lmagan yechimlar topishni rag'batlantiradi. Talaba mavjud metodlar bilan cheklanib qolmay, ta'limiy vaziyatga mos holda yangi g'oyalar ilgari surish, moslashuvchan qarorlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat pedagogik jarayonning jonlanishiga va ta'lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Metodning muhim jihatlaridan biri pedagogik faoliyatda ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishdan iborat. Qabul qilinadigan har bir qarorning o'quvchi shaxsiga ta'siri chuqur anglanishi, pedagogik aralashuvlar esa ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim. Bu esa bo'lajak pedagogda kasbiy yetuklik, axloqiy barqarorlik va ta'lim jarayoniga nisbatan mas'ul yondashuvni qaror toptiradi.

Lumiyera metodini amalga oshirish jarayonida ta'lim faoliyati faol ishtirok va amaliy tahlilga asoslangan shakllar orqali tashkil etiladi. Bunda talabalar pedagogik jarayonning faol subyekti sifatida qatnashadi. Ta'limiy jarayon real yoki shartli pedagogik vaziyatlarni o'rganish orqali tashkil etilib, ularning mazmuni muammo va yechimlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yo'naltiriladi. Ushbu yondashuv talabalarda tahliliy fikrlashni rivojlantirish va nazariy bilimlarni amaliy holatlar bilan bog'lash imkonini yaratadi.

Metod doirasida pedagogik faoliyatning turli rollarini sinab ko'rish orqali kasbiy tajriba hosil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Talabalar o'qituvchi, o'quvchi, kuzatuvchi yoki maslahat beruvchi kabi turli pozitsiyalarda faoliyat olib borib, pedagogik jarayonni turli nuqtayi nazardan idrok etishni o'rganadi. Bu esa ularning empatiya, kommunikativ madaniyat va pedagogik moslashuvchanlik kabi muhim kasbiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida talabalarni bevosita pedagogik jarayonni tahlil qilishga yo'naltirish muhim o'rin tutadi. O'quvchi xatti-harakatlari, o'quv faoliyatidagi o'zgarishlar hamda ta'limiy muhit ta'siri tizimli ravishda o'rganilib, olingan ma'lumotlar asosida xulosalar chiqariladi. Bunday yondashuv tasodifiy baholashdan voz kechib, faktlarga tayangan pedagogik fikrlashni shakllantiradi.

Metod talabanning yozma faoliyati orqali o'z pedagogik tajribasini tahlil qilish imkonini ham ta'minlaydi. Yozma mulohazalar orqali talaba o'z qarorlari, tanlangan yondashuvlar va ularning natijalarini mantiqiy asosda ifodalaydi. Ushbu jarayon pedagogik refleksiyaning chuqurlashtirish, o'z-o'zini baholash va kasbiy o'sishga yo'naltirilgan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayoni jamoaviy fikr almashuv asosida tashkil etilib, talabalar o'z qarashlarini asoslash, boshqalarning fikrlarini tinglash va umumiy xulosaga kelish jarayonida faol ishtirok etadi. Bu shakl pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish, muqobil fikrlarga hurmat bilan yondashish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Metod algoritmi talabanning pedagogik tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi. Har bir bosqich avvalgi bosqichda shakllangan bilim, ko'nikma va tajribaga tayanadi hamda keyingi bosqich uchun zarur metodik asosni yaratadi.

Birinchi bosqichning asosiy maqsadi talabalarda o'quvchi shaxsiga nisbatan e'tiborli va tahliliy yondashuvni shakllantirish, iqtidor belgilari bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni ilg'ay olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu jarayonda talabalar tezkor xulosa chiqarishdan voz kechib, pedagogik vaziyatni sinchiklab o'rganish va dalillarga asoslangan fikr yuritishga yo'naltiriladi.

Ikkinchi bosqich birinchi bosqichda aniqlangan kuzatuv natijalarini chuqurroq tahlil qilishga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonda talabalar pedagogik fikrlashi aniqlashtirilib, o'quvchi faoliyatida kuzatilgan belgilar muayyan iqtidor yo'nalishlari bilan bog'lanadi. Bosqichning asosiy vazifasi iqtidorni umumiy tasavvur darajasidan chiqarib, uni aniq pedagogik kategoriya sifatida asoslashdan iborat.

Uchinchi bosqichda iqtidorni aniqlashga qaratilgan tahliliy faoliyat rivojlantiruvchi yo'nalishga o'tadi. Oldingi bosqichlarda aniqlangan iqtidor yo'nalishlari ushbu bosqichda maqsadli pedagogik ta'sir orqali qo'llab-quvvatlanadi va faollashtiriladi. Bosqichning asosiy vazifasi o'quvchi salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'limiy sharoitlarni yaratishdan iborat.

To'rtinchi bosqich iqtidorni rivojlantirish jarayonida tashqi pedagogik sharoitlarning ahamiyatini anglashga yo'naltiriladi. Iqtidorning barqaror rivojlanishi qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhitga ham bevosita bog'liq. Shu sababli ushbu bosqichda ta'lim jarayoni o'quvchi salohiyatining ochilishiga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik makon sifatida qaraladi.

Beshinchi bosqich iqtidorni rivojlantirish jarayonida muvozanatni ta'minlashga yo'naltiriladi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda yuqori natijalarga intilish ayrim hollarda ortiqcha yuklama, ruhiy zo'riqish yoki ijtimoiy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ushbu bosqichda pedagogik ta'sirni me'yorida tashkil etish, o'quvchining psixologik holatini barqaror saqlash va uning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash masalalari markaziy o'rinni egallaydi.

Oldinchi bosqich Lumiyera metodining yakunlovchi qismi bo'lib, unda amalga oshirilgan pedagogik faoliyat natijalari chuqur tahlil qilinadi. Ushbu jarayon pedagogik qarorlarning oqibatlarini anglash, ularning samaradorligini baholash va kelgusidagi faoliyat uchun xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Bosqich davomida talaba pedagogik faoliyatni o'rganiladigan va takomillashtiriladigan kasbiy tajriba sifatida idrok etadi. Mazkur bosqichda tahliliy fikrlash va o'z-o'zini baholash jarayonlari pedagogik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Yuqorida yoritilgan nazariy asoslar Lumiyera metodining iqtidorni aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim ekanligini ko'rsatadi. Mazkur metodda iqtidor shaxsda tayyor holatda mavjud bo'lgan sifat emas, balki pedagogik sharoitlar, maqsadli ta'limiy ta'sir va reflektiv yondashuv orqali bosqichma-bosqich namoyon bo'ladigan va rivojlanadigan jarayon sifatida talqin etiladi. Shu bois, metodning samaradorligi uning amaliyotda qanday tashkil etilishi va talabalar pedagogik faoliyatga faol jalb qilinish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, Lumiyera metodini amalga oshirishga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

Mazkur topshiriq Lumiyera metodining boshlang'ich bosqichiga mos bo'lib, talabalarda iqtidorli o'quvchini aniqlash jarayonining eng muhim tarkibiy qismi – pedagogik idrok va dastlabki tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli topshiriqning metodik vazifasi talabani tayyor xulosalardan voz kechishga, kuzatuvni dalillar bilan bog'lashga

hamda iqtidor belgilarini ehtimoliy ko'rsatkichlar sifatida ajratishga yo'naltirishdan iborat.

Talabalarga 5-7 daqiqalik videovaziyat yoki matn shaklidagi pedagogik holat taqdim etiladi. Material mazmuni shunday tuziladiki, unda o'quvchining iqtidorli ekanligi ochiq bayon qilinmaydi; aksincha, o'quvchi xatti-harakatlarida turli pedagogik talqinlarga sabab bo'ladigan noaniq belgilar beriladi. Bu yondashuv metodik jihatdan muhim, chunki u real kuzatuvga tayanib ishlashini ta'minlaydi.

Topshiriqni bajarish jarayonida talaba vaziyatni diqqat bilan o'rganib, o'quvchining faoliyatida iqtidor bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan holatlarni ajratib oladi. Bunda talaba hodisani "iqtidor" deb nomlashdan oldin, avvalo kuzatilgan faktni aniq qayd etishi, keyin esa uning ehtimoliy pedagogik izohini berishi lozim. Shunday qilib, topshiriq kuzatuv, qayd, izoh va xulosa ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi.

Vazifa (*talaba bajaradigan ishlar*). Topshiriq doirasida talaba quyidagi amallarni bajaradi:

1. Taqdim etilgan vaziyatdan iqtidor belgisi bo'lishi mumkin bo'lgan kamida 5 ta holatni ajratadi.

2. Har bir holat bo'yicha qisqa ilmiy izoh beradi, ya'ni:

- qaysi xatti-harakat yoki vaziyat elementi kuzatildi;
- u nima sababdan iqtidor ehtimolini bildirishi mumkin;
- bu holat qanday pedagogik ma'noga ega bo'lishi ehtimoli bor.

Bu jarayon talabaning tahliliy asosda izoh berishini talab qiladi. Aynan shu jihat topshiriqni oddiy "fikir aytish" dan farqlab, uni metodik jihatdan ilmiy faoliyatga yaqinlashtiradi.

Topshiriq yakunida talaba iqtidorni "tayyor yorliq" sifatida qo'llashdan ko'ra, o'quvchi faoliyatidagi yashirin va bilvosita ko'rsatkichlarni ajrata olishga, ularni dalil asosida izohlashga hamda dastlabki pedagogik xulosani ehtiyotkorlik bilan shakllantirishga o'rganadi. Shu tariqa talabada iqtidorni aniqlash bo'yicha boshlang'ich metodik tayyorgarlik shakllanadi va bu keyingi bosqichda iqtidor turini aniq belgilash uchun zarur tahliliy asosni yaratadi.

Topshiriq talabalardan "Men iqtidorli o'quvchi bilan ishlashga qay darajada tayyorman?" mavzusida 1-1,5 bet hajmda yozma mulohaza yuritishni talab etadi. Esse mazmunida talaba o'z pedagogik tayyorgarligini tanqidiy baholashi, metod davomida egallangan yangi bilim va tushunchalarni tahlil qilishi hamda ularning kasbiy qarashlariga qanday ta'sir ko'rsatganini ochib berishi lozim. Bunda esse shaxsiy fikrlar bayoni bilan cheklanmasdan, metod davomida bajarilgan topshiriqlar va kuzatuvlar bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi talab etiladi.

Esse yozish jarayonida talaba yo'naltiruvchi savollar asosida fikr yuritadi. Avvalo, ilgari e'tibordan chetda qolgan jihatlar, ya'ni iqtidorni aniqlash va rivojlantirishga oid yangi bilimlar va tushunchalar tahlil qilinadi. Keyingi qismda talaba pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni anglashga harakat qiladi, ularning sabablari va ehtimoliy oqibatlarini baholaydi. Shu bilan birga, metod jarayonida samarali bo'lgan pedagogik qarorlar ajratib ko'rsatiladi va ularning nima sababdan ijobiy natija bergani izohlanadi.

Mazkur topshiriq talabalarda o'z faoliyatiga nisbatan tanqidiy va ongli munosabatni shakllantiradi. Refleksiya jarayonida talaba o'zining kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlarini angelaydi, kasbiy faoliyatda doimiy o'zini takomillashtirish zarurligini tushunadi. Shu tariqa, refleksiv esse bo'lajak pedagoqlarning kasbiy yetukligini oshirish, mas'uliyatli pedagogik qarorlar qabul qilishga tayyorligini mustahkamlashda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Lumiyera metodini qo'llash jarayonida talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga doir kompetensiyasi aniq mezonlar asosida rivojlanib, uning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik

faoliyatining samaradorligi oshib boradi [4]. Lumiyera metodi asosidagi Klasterli yondashuv talabada iqtidorli o'quvchi bilan ishlashni ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida ko'rish ko'nikmasini rivojlantiradi: iqtidorni aniqlashda psixologik xizmat, sinfdan tashqari ta'lim muassasalari, ota-onalar, fan olimpiadalari, ijodiy to'garaklar, mentorlar, hamkor oliy ta'lim yoki ilmiy markazlar imkoniyatlari bir butun mexanizmida ishlaydi [5].

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirov A. Xorijiy ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchi tushunchasi // Xalq ta'limi (ilmiy-metodik jurnal). 2017. № 3. – B. 24-27.
2. Muhammadiyev E. Oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlashning ilmiy-metodik asoslari // Oliy ta'lim muammolari. 2019. № 4. – B. 88-92.
3. Алметов Н.Ш., Болыс Г.С. Образовательный кластер как инновационный механизм качественной подготовки специалистов // Вестник КазНПУ им.Абая (сер. «Педагогические науки»). 2025. Т. 87, № 3. – С. 81-91.
4. Salayeva Z. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda klasterlash yondashuvi // Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy axborotlari. 2021. № 1. – B. 123-128.
5. Abdullayeva M. Iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashda ota-ona bilan hamkorlik // Ta'lim tarbiya. 2020. № 4. – B. 33-37.

UO'K: 378.046.4:37.013.42

### KASBIY TAYYORGARLIKNI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

<https://zenodo.org/records/18754584>

**Jo'rayeva Muxtasar Abduqahhorovna**

*Qo'qon davlat universiteti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini qanday shakllantirish masalalari ilmiy va pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Aslida, integrativ yondashuvning mohiyati, uning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli va ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Tadqiqot jarayonida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uyg'unlik, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi aniqlangan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirishda integrativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlari juda yuqori.*

**Kalit so'zlar:** *integrativ yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik, fanlararo integratsiya, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati.*

**Аннотация.** *В этой статье мы взглянем на вопросы, касающиеся формирования профессиональной подготовки будущих специалистов с научно-педагогической точки зрения, используя интегративный подход. Давайте подробнее рассмотрим, что такое интегративный подход и какое значение он имеет для развития профессиональных компетенций. В ходе нашего исследования мы пришли к важным выводам о том, как междисциплинарная интеграция играет ключевую роль в формировании профессиональной подготовки. Объединение теории и практики оказывается крайне важным, и мы также отметили, насколько эффективным может быть применение инновационных педагогических технологий. Результаты нашего исследования подчеркивают, что интегративный подход обладает значительным педагогическим потенциалом. Он действительно может повысить профессиональную компетентность будущих специалистов, что очень важно для их успешного продвижения в выбранной сфере.*

**Ключевые слова:** *интегративный подход, профессиональная подготовка, профессиональная компетентность, междисциплинарная интеграция, педагогические технологии, качество образования.*

**Abstract.** *This article delves into the challenges of developing professional training for future specialists, taking a closer look at it through an integrative approach from both scientific and pedagogical viewpoints. It offers a thorough explanation of what the integrative approach entails and highlights its importance in building professional competencies. Throughout the research, we've pinpointed key aspects like the necessity of interdisciplinary integration in crafting effective training, the balance between*

